Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: WM8676482773

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG‘ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI
150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko‘chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg‘ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

31.01.2022 йил **Beshariq tuman**
Moliya bo’limi

XULOSA
(moliya bo’limining
1-sonli shartnoma loyihasiga)

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyhaning nomi: “Byudjetdan mablag‘ oluvchi muassasalarni xo‘jalik, qurilish mollari, maishiy texnika buyumlari bilan ta'minlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha” №1-sonli shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman moliya bo’limi tomonidan 2022 yil 28 yanvar kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati”ning **25-bandida maxsus va xizmat avtotransporti vositalarini, shuningdek, tibbiyot uskunalarini ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri** shartnomalar tuzishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra**:**

XULOSA

Beshariq tuman moliya bo’limi tomonidan taqdim etilgan “Byudjetdan mablag‘ oluvchi muassasalarni xo‘jalik, qurilish mollari, maishiy texnika buyumlari bilan ta'minlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha” №1-sonli shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti **X.Abdurafiqov**